ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6/2-son.

*DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24558374*

# Harbiy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari

**Umarov Ismoiljon Olimjonovich –**
Farg‘ona davlat universiteti,
Harbiy ta’lim fakulteti, Uslubiy tayyorgarlik sikli boshlig‘i
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: icmoiljonumarov915@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0008-9065-9445

**Odilov Inomjon Muzaffarjon o‘g‘li –**
Fag‘ona davlat unversiteti harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Oliy harbiy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omillari, faoliyatning turli jabhalari, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko‘pgina turlarda ifodalanishi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o‘z-o‘zini faollashtirish, mustaqillik, o‘z o‘zini nazorat qilishi, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o‘quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalari foydalanish yuuzasidan umumiy tushunchalar batafsil yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *pedagogik mexanizm, ilmiy-texnikaviy, operatsion mexanizm, pedagog kadr, kreativlik, qobiliyat, motivatsion, funksional, operatsion, qiziqish, ehtiyoj, idrok qilish, faoliyat.*

# Педагогические механизмы формирования и развития творческих способностей студентов военных образовательных учреждений

***Аннотация.*** *В данной статье подробно раскрываются педагогические механизмы развития творческих способностей студентов высших военных образовательных учреждений, факторы высокого уровня развития креативности, особенности проявления творческих способностей в различных сферах деятельности, включая речевую, письменно-творческую и другие виды деятельности. Рассматриваются личностно-ориентированный подход, эмоционально-психическое состояние, активное творческое воображение, самоактивизация, самостоятельность, самоконтроль, самореализация, самовыражение, самооценка, а также общие аспекты использования инновационных образовательных технологий в учебном процессе.*

***Ключевые слова:*** *педагогический механизм, научно-технический,*

*операционный механизм, педагогические кадры, креативность, способность, мотивационный, функциональный, операционный, интерес, потребность, восприятие, деятельность.*

## Pedagogical mechanisms for forming and developing the creative abilities of students in military educational institutions

***Annotation.*** *This article provides a detailed examination of the pedagogical mechanisms for developing the creative abilities of students in higher military educational institutions, the factors contributing to advanced creative development, and the manifestation of creative abilities in various spheres of activity, including oral communication, creative writing, and other forms of activity. Particular attention is given to the learner-centered approach, emotional and psychological states, active creative imagination, self-activation, independence, self-control, self-realization, self-expression, self-assessment, and the general aspects of applying innovative educational technologies in the learning process.*

***Keywords:*** *pedagogical mechanism, scientific and technical, operational mechanism, teaching personnel, creativity, ability, motivational, functional, operational, interest, need, perception, activity.*

**KIRISH**

Harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish dunyo mamlakatlari ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida zaruriy kasbiy fazilatlar, tayanch kompetensiyalar, mustaqil va kreativ fikrlash, nostandart vaziyatlarda tezkor hamda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy harbiy ta'lim sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, talabalarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim mazmunini zamonaviy kasbiy talablar asosida takomillashtirish hamda harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Xozirga vaqtda harbiy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan eng muhim talab va ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy sharti – keng dunyoqarashli, egiluvchan tafakkurga ega, nostandart fikr yurituvchi, tezkor qaror qabul qilishga qodir, harbiy-kasbiy kompetensiyalarni mustahkam egallagan, ijodiy faoliyat yurita oladigan kreativ harbiy mutaxassisni shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, "mexanizm" tushunchasi fanlararo ta'rif bo'lib, uning ma'nosi qo'llash sohasiga qarab o'zgaradi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda "mexanizm" ta'rifiga murojaat qilsak, biz quyidagilarni ta'kidlaymiz: joriy talqinlar:

mexanizm - pedagogik ta'sir obyektining faoliyatini belgilovchi va uning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan qurilma;

mexanizm – pedagogik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi o'zaro bog'liq elementlar yig'indisidir;

mexanizm – har qanday hodisani belgilovchi pedagogik tizim jarayonlari yoki holatlari majmuasidir;

mexanizm - obyektning ishlash va rivojlanish qobiliyatini amalga oshiradigan o'zaro bog'langan elementlar to'plamidir. Shunday qilib, aytish mumkin "mexanizm" tushunchasi pedagogik adabiyotlarda ma'lum qobiliyat yoki shaxs sifatini shakllantirishning o'zaro bog'liq tizimlari va jarayonlarini tavsiflash uchun faol foydalaniladi. Voqelikning har bir murakkab hodisasi singari, mexanizm ham statik, ham dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, ular birgalikda operatsiyalar, harakatlar, murakkab o'ziga xos funksiyalar tizimini ifodalaydi.

Pedagogikadagi mexanizm - bu ma'lum bir boshlanishi va natijalarining o'zaro bog'liqligiga ega bo'lgan ko'p darajali o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq jarayonlarning yaxlit tizimi.

Mexanizm – tabiat qonunlariga ko'ra amal qiladigan hodisa yoki harakatlar tizimi, shuningdek, uning amalga oshishiga ko'maklashuvchi qurilma yohud asboblardir. Talabalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mazkur jarayonni amalga oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni faollashtirishni talab etadi. Bunday psixologik-pedagogik mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- motivatsion mexanizm - motivsiz, xohish-istaksiz qobiliyatlar yuzaga chiqmaydi;
- operatsion mexanizm - operatsiya (usullar) yordamida qobiliyatlar namoyon bo'ladi;
- funksional (jarayonli) mexanizm - ruhiy jarayonlar sifati orqali qobiliyatlarning operatsion mexanizmlari amalga oshadi; ilg'or innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar.

Zamonaviy innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar to'g'ridan-to'g'ri talaba shaxsini, undagi kreativlik qobiliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, biz mutanosib innovatsion texnologiyalarni jamlashga harakat qildik.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo'lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko'pgina turlarda ifodalanadi. Kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, o'z o'zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o'quv jarayonida ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Qobiliyatlar ruhiy-individual xususiyatlar majmui hisoblanib, mahsuldor faoliyat uchun muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Qabiliyatlar uchun faoliyat suv va havoday zarur (faoliyat uning shakllanishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi). Intellektual qobiliyat tushunchalardan foydalana bilish, mantiqiy umumlashma mulohaza yuritish mahoratini anglatadi.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarni takomillashtirish o'quv jarayonida faoliyat modeli va jadvalidan foydalanishni taqozo etadi.

**Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari**

Qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari uning darajalarini ham nazarda tutishni talab etadi.

Qobiliyat darajalari ikki xil bo'lib, bular:

- reproduktiv daraja – bilimlarni o'zlashtirishda yuqori layoqatga ega bo'lish, tegishli ko'nikma va malakalarni egallash;
- kreativ daraja – bilim, ko'nikma va malakalarning betakror, yangi darajasini ta'minlashdir.Ta'limning mutanosib an'anaviy, innovatsion, noan'anaviy, mualliflik metodlarini uyg'unlikda qo'llash orqali o'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga erishamiz.

**"Kreativlik"** va **"pedagogik kreativlik"** tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada"kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila jarayoniga boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini

qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj"Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun *zarur shart-sharoitni yaratishga* xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson olami ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va Faoliyat jarayonini loyihalashni malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

**XULOSA**

Pedagogik mexanizmlarni o'ylangan holda tanlab, amaliyotga tatbiq etish orqali o'qituvchilar chuqur tushunishga yordam beruvchi va o'quvchilarda o'rganishga muhabbat uyg'otadigan dinamik va qiziqarli ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Talabalarni kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirish nazariy jihatdan ishlab chiqiladigan didaktik yondashuvlardan iborat bo'lib, ushbu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan hamda samaradorligini oshirishda amal qilish muhim bo'lgan prinsiplar va ularni amalga oshirish bosqichlari aniqlangan. Mashg'ulot mavzularini loyihalash, maqsadini va unga erishish yo'lida bajariladigan vazifalarni belgilash, uning tashkiliy shakl, usul, vosita va metodlarini tanlash sinfdan tashqari darslarni tashkil etish mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gusserl E. Sof fenomenologiya va fenomenologik falsafa uchun g'oyalar // Falsafa XX asr: O'quvchi Muallif. V.A. Sakutin, M.V. Kazmiruk. Vladivostok: Mor. davlat Universitet, 2005 yil.

2 Shibaeva A.V. Innovatsion strategiyaga yo'naltirilgan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilash muammolari 1-Umumrossiya konferentsiyasi materiallari (21). 1994 yil 22 aprel) Ed. Yu.A. Karpova. M., 1996. B. 39. 1 4 5 VulfovB.

3. Xarkin V.D. Fikrlash pedagogikasi: prof. o'qituvchilar tayyorlash. M., 1995. Zvenigorodskaya G.P. Fenomenologiya va ta'limda aks ettirish: O'qituvchilar uchun kitob. Xabarovsk, 2002 yil. Vyaznikova L.F. Ta'lim tizimi rahbarlarini kasbiy qayta tayyorlashning psixologik asoslari: o'zgarish vaqti. Xabarovsk, 2002 yil.

5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

6. Innovatsion ta'lim texnologiyalari Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.